

QATARNING AFG'ONISTONDAGI TASHQI SIYOSIY MANFAATLARI

Yoqubjonov Yusufjon Zaribjon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizmi fakulteti 3-bosqich talabasi landlord0703@gmail.com +998977774969

Anatatsiya: Qatar hududi 11,581 km², "167.2 milliard dollar"¹⁴ yalpi ichki mahsulotga ega bo'lgan monarxistik davlat hisoblanadi. Biz bu maqolada qatarning Afg'oniston bilan bog'liqligi, uning G'arb davlatlari va Tolibon hamda Afg'onistonning sobiq hukumati o'rtaida vositachilik qilganini o'rganamiz. Shuningdek Qatarning ushbu vositachilikka aloqadorlik masalalarini ham ko'rib o'tamiz. Ushbu vositachilik ro'lida AQShning o'rni va Qatar bilan munosabatlariga to'xtalib o'tamiz. Qatar formatidan boshqa formatlar ham mavjud. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki aynan hokimyat Tolibonga o'tgan paytda ham uyerdagи fuqarolarni va chet el elchixonalari va konsulliklarini evakuatsiya qilishda faol ishtirok etdi va hattoki "Qatar airways" ham qo'shimcha reyslarni tashkillashtirdi. Bu esa o'z navbatida Qatarning tashqi siyosiy jozibadorligini oshirdi.

Kalit so'zlar: Monarxiya, konsullik, "Dyurand chizig'i", Ko'rfaz Hamkorlik Kengashi blokadasi, "Fors ko'rfazi", "Arab ko'rfazi", "Arab bahori", "Arab to'rtligi"

Fors ko'rfazi va Arab ko'rfazi bir ma'noni anglatadi faqatgina Arab mamlakatlari manbaalarida Arab ko'rfazi va G'arb manbaalarida esa Fors ko'rfazi deyiladi, chunki aynan Qatar joylashgan hudud Ko'rfaz bo'lgani uchun biz bu borada Ko'rfaz deya yozdik. Shuningdek Qatar tashqi siyosatiga qaraydigan bo'lsak:

"Vizion 2030 dasturi bo'yicha tashqi siyosiy konsepsiysi

Qatar davlati uchun ham mintaqaviy, ham xalqaro miqyosda taniqli tashqi siyosatga ega bo'lish va chet eldagи fuqarolarning manfaatlariga g'amxo'rlik qilish.

Missiyasi

Qatar xalqining intilishlari va manfaatlariga hamda davlatning strategik manfaatlariga erishadigan yaxshi yo'lga qo'yilgan siyosatni qabul qilish.

Maqsadlar

- Dunyo tinchligiga erishish yo'lida barcha davlatlar va tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va rivojlantirish.
- Qatarning umumiy siyosati maqsadlariga eng yaxshi xizmat qilish uchun Qatarning ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarini mustahkamlash.
- Turli sohalarda rivojlanish sa'y-harakatlariga hissa qo'shish.
- Chet eldagи fuqarolarga mukammal xizmat ko'rsatish.
- Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining turli diplomatik, konsullik va ma'muriy sohalarda salohiyatini oshirish va rivojlantirish."¹⁵

Qatar davlati Vashington va 2013-yildan beri Tolibon siyosiy idorasini saqlab kelayotgan va o'rtaida vositachilik kuchiga aylandi. "Qatarning Tolibon bilan "ildizli"

¹⁴ Projected GDP per capita Ranking Retrieved from: <https://statisticstimes.com/economy/projected-world-gdp-capita-ranking.php>

¹⁵ Strategies Retrieved from: <https://mofa.gov.qa/en/the-ministry/ministry-strategies>



aloqalari bu munosabatlarning “bir lahzalik emasligini ko’rsatadi, bu ularning munosabatlari kelajakda kuchli ma’noda davom etishidan dalolat beradi”, deydi Istanbullik Fors ko’rfazi siyosiy tahlilchisi Omer Duran.”¹⁶ Avvalam bor Qatar va Afg’onistonni nima bog’laydi degan savolga javob berishga harakat qilamiz. Ikki davlat ham Islom diniga e’tiqod qiladi va bu hududlarda Islom dinining o’rni yuqori. Bu vositachilikka Qatar qanday erishdi? Nega Tolibon harakatini tan olgan davlatlar erisha olmadi degan savollarga ham javob berishga harakat qilamiz. Bunga sabab sifatida aynan ularning Tolibon harakatini tan olganligidir. Yani vositachi davlat neytral bo’lishi kerak. Yana bir asosiy kuch borki bu AQShdir uning ta’siri bilan o’zining ta’siri yuqori bo’lgan neytral davlat tanlandi. “Qatar, shuningdek, 2020-yil boshida Tramp ma’muriyati Afg’oniston bo'yicha olib borgan “tinchlik” muzokaralariga mezbonlik qildi, bu esa o’z navbatи afg’on hukumatini chetlab o’tdi va Tolibon g‘alaba qozonishiga ishonch hosil qildi.”¹⁷ U yerda Qatar AQShning Afg’onistondagi kuchlari uchun asosiy kafolatchi bo’la oldi. Muxtasar qilib aytganda, agar AQSh qo’shlari xavfsizlik masalasida Qatar vositachi bo’lishdi va shu tariqa Tolibon ustida, ham AQSh siyosatini amalga oshirish imkonini berdi. Bu Qatar uchun ham muhim edi chunki 2011-yildagi “Arab bahori” davrida obro’si tushgan arab davlatlarining o’z tashqi siyosatini rivojlantirish uchun kerak edi. Aynan “Arab bahori” ning talablaridan biri bu demoktarik tamoyillar bo’lishi kerakligi edi. Ammo Qatar monarxistik davlat hisoblanishi hukumron sulola manfaatiga to’g’ri kelmasdi va bu vaziyat u uchun ham juda qo’l keldi. Qatarning Tolibon siyosiy yetakchilari va sobiq afg’on rasmiylari o’rtasida vositachi bo’lish harakati Ko’rfaz davlatini mintaqaviy kuch vositachisi sifatida mustahkamladi, deydi tahlilchilar. “Qatar o’zini Tolibon bilan vositachi sifatida ko’rsatdi. Bu, ayniqsa, keng omma uchun hisobga olgan holda, xavfli garov edi, lekin bu o’z samarasini berdi ”, dedi Sinzia Bianco, Xalqaro aloqalar bo'yicha Yevropa kengashining Fors ko’rfazidagi tadqiqotchisi.”¹⁸ Bu yerdagi “garov” Tolibon harakatining terroristik tashkilotlar ro’yhati ekanligidir. Ya’ni agar bu hodisa ijobjiy tarzda kechmaganida, Qatar terroristic tashkilotlarni qo’llashda ayblanib qolar edi.

Shu orqali o’zining xalqaro munosabatlardagi o’rnini tiklab oldi. Ko’rfazning boshqa davlatlari kabi Qatar ham Amerikani xavfsizlikning asosiy kafolati deb biliши uning shu yo’lni tanlashiga olib keldi. Yana Shuni alohida ta’kidlash kerakki eslatib o’tamiz, aynan Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) Janubiy Osiyodagi siyosiy ta’sirini kuchaytirish maqsadida 2018-yilda Afg’oniston bo'yicha muzokaralarga mezbonlik qilishni bиринчи мarta taklif qilgan edi. Ammo mamlakatning mintaqadagi islomiy harakatlarga dushmanona munosabatda bo’lganligi sababli uning urinishlari samara bermadi. BAAning bunday muzokaralarga mezbonlik qilolmasligi va Qatarning bu muzokaralarni samarali yakunlay olishi ikki davlatdagи muzokaralar muhiti bilan bog’liq. Tolibon yetakchilari BAAda 2011-yilgi arab bahoridan keyin turli mintaqalarda siyosiy islomiy harakatlarga

¹⁶ Murat,S. (September 16, 2021) What role will Qatar play in Taliban ruled Afghanistan Retrieved from: <https://www.trtworld.com/magazine/what-role-will-qatar-play-in-taliban-ruled-afghanistan-50002>

¹⁷ SETH J. FRANTS MAN (August 25, 2021) How Qatar became the power broker of Afghanistan – analysis Retrieved from: <https://www.jpost.com/middle-east/how-qatar-became-the-power-broker-of-afghanistan-analysis-677606>

¹⁸ Qatar’s Taliban efforts position Doha as a key mediator: Analysts Retrieved from: <https://www.aljazeera.com/news/2021/8/20/qatars-taliban-efforts-position-doha-as-a-key-mediator-analysts>



nisbatan o'ziga xos adovat paydo bo'lganidan beri BAAAda qo'llab-quvvatlovchi yoki hech bo'limganda xolis muhitda muzokaralar olib bormayotganliklarini his qilishdi. Bu Misrdagi "Musulmon birodarlar", Falastinning "Hamas", Tunisdagi "Annahda" va Liviyadagi ko'plab islomiy guruhlarga qarshi edi. Shuningdek Saudiya Arbistoni va Ko'rfaz arab davlatlari birlashgan harbiylari Yamanda "Husiy" larga qarshi harbiy harakatlar olib bormoqda. Yana bu joyida alohida e'tiborga molik jihatni shundaki Qatar eron bilan ham Turkiya bilan ham samarali aloqalar o'rnatgan. Bu nimani anglatadi-ki Qatar Afg'onlararo masalalarga vositachilik qilganida Eronni ham bir davra atrofiga olib kelish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan farqli o'laroq, Doha bu guruhlar bilan iliq aloqalar o'rnatdi va shu tariqa ular va ularning mahalliy siyosiy dushmanlari o'rtasida ishonchli vositachi va ular bilan muzokaralar o'rnatishga intilayotgan AQSh va boshqa G'arb davlatlari uchun darvozaga aylandi. Demak, Afg'onistonidagi so'nggi o'zgarishlar va hokimiyatning Tolibonga tinch yo'l bilan o'tishi nafaqat urushdan toliqqan mamlakatdagi azob-uqubatlarga chek qo'yishga qaratilgan Qatar boshchiligidagi vositachilik sa'y-harakatlari muvaffaqiyatini ko'rsatibgina qolmay, balki Fors ko'rfazidagi o'rnini kuchayishiga ham imkon berdi. "Doha o'zining faol diplomatiyasi va vositachilik sa'y-harakatlari bilan mashhur bo'lib, ulgurgan edi Yamanda o'z samarasini bergen (2008 yilda hukumat va husiylar o'rtasida); Livan (2009-yilda mamlakatning raqiblari qatorida), Falastin (2012-yilda Fath va Xamas o'rtasida); 2009 yilda Sudan va Chad; 2010 yilda Jibuti va Eretiyya; va eng muhimi, 2011-yilda Sudan hukumati va muxolifatini birlashtirgan Darfur kelishuvi."¹⁹ Masalalarida vostachilik roli uning xalqaro maydondagi obrusini mustahkamlab qo'yan edi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, Saudiya Arabistoni ham, uning qo'shni Amirliklari ham Qatarning Tolibon bilan vositachilik roliga to'g'ridan-to'g'ri raqib sifatida paydo bo'lgan. Saudiya Arabistoni bir necha bor Tolibonni Saudiya zaminida muzokaralarni davom ettirishga ishontirishga urindi, biroq Tolibon Saudiya hukmdorlarining betarafligiga umidsizlik bilan qaradi va qatarliklarni afzal ko'rdi. Nyu-York Tayms gazetasiga sizdirilgan xabarga ko'ra, BAA ham Tolibon siyosiy idorasini joylashtirish uchun Qatar bilan raqobatlashgan. Alternativ sifatida 2018-yilda Abu-Dabida Tolibon va AQSh rasmiylari o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tgan.

Tolibon Kobulni qo'lga kiritgach, Abu Dabi ham yuzlab afg'on qochqinlarini qabul qildi va Afg'onistonga 100 tonnadan ortiq gumanitar yordam jo'natib, Afg'oniston ichida faol rol o'ynadi. Afg'onistondan tashqari, BAA Fors ko'rfazidagi Qatar bilan raqobatlashadi va Qatarni mintaqadagi "Musulmon birodarlar" guruhlarini moliyaviy va siyosiy qo'llab-quvvatlagani uchun ham tanqid qiladi. Shu sababli va BAA Rossiya va Xitoy bilan nisbatan yaqin aloqaga ega bo'lgani uchun Afg'oniston masalasida Pokiston ta'sirini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Aynan Qatar Tolibonni "deYure" tan olamagan bo'lsada o'rtagi vositachilikni samarali o'tadi. Aynan Qatar vositachilik davrida AQSh o'z qo'shinlarini ushbu hududlardan olib chiqib ketdi. Qatarda Afg'onlararo kelishuvlar bo'lib o'tdi va shu bilan qatorda hokimiyat almashgan davrda fuqarolarni evakuatsiyasida ham faol ishtirok etdi. "Tolibon nazorati ostidagi Kobuldan taxminan 1200 mil uzoqlikda, Qatar texnik guruhlari vayron bo'lgan aeroportni tikladi va ishga tushirdi. "Ko'plab davlatlar

¹⁹ Dr. Ali Abi Rezeg (August 24, 2021) ANALYSIS - Qatar emerges as biggest regional winner in Afghan endgame
<https://www.aa.com.tr/en/analysis/analysis-qatar-emerges-as-biggest-regional-winner-in-afghan-endgame/2344157>



Afg'onistondagi evakuatsiya va boshqa joyga ko'chirish harakatlariga yordam berish uchun faollashdi, biroq hech bir davlat Qatardan ko'ra ko'proq ish qilgani yo'q", dedi Davlat kotibi Entoni Blinken.²⁰ Bu esa o'z navbatida "Arab to'rtligi" Bular Saudiya Arbiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr, Bahrayn. tomonidan yolg'izlab qo'yilgan Qatar tashqi siyosatini xalqaro maydonda e'tirof etilishiga olib keldi. Endilikda ko'rfa za arab davlatlari Afg'onistondagi va boshqa manfaatlarini himoya qilish uchun 2021 yilda blokadani to'xtatishga qaror qilishdi.

Tolibonning Dohadagi siyosiy idorasi rahbari Mulla Abdulg'ani Barodar 2020-yil 29-fevralda Qo'shma Shtatlar bilan AQSh va boshqa xorijiy kuchlarni olib chiqishga yo'l ochgan kelishuvni imzoladi. Tolibon AQSh boshchiligidagi xorijiy kuchlarga hujum qilmaslikka va'da berdi. Kelishuv shuningdek, Qatar poytaxtida Tolibon va Afg'oniston rahbariyati o'rtasida tinchlik muzokaralarini boshladi. Ammo Tolibon muzokaralarda ishtirok etar ekan, quruqlikdagi harbiy hujumlarini davom ettirdi. Yana shunisi e'tiborga molikki kelishuvlar vaqtida markaziy hokimiyat vakillari chaqirlmadı.

Qobulni qo'lga kiritgandan so'ng, Tolibon o'z qo'shnilarini va yirik mintaqaviy yetakchi kuchlar Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Pokiston va Ko'rfa Arab Davlatlari bilan yaxshi munosabatlarga intilayotganini e'lon qildi. Shunga qaramay, Pokiston va Qatarning Tolibon bilan aloqalari saqlanib qolayotganini hisobga olsak, bu o'zgaruvchan muvozanatda ikki davlat asosiy g'olib bo'lib ko'rindi va qaysi biri asosiy vositachi sifatida tanlansa, Afg'onistonga nisbatan mintaqaviy siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Pokiston ham, Qatar ham Tolibon bilan o'z munosabatlarini qurban, Qatar esa sakkiz yil davomida Tolibon siyosiy idorasiga mezbonlik qilgan, Pokistonning Xizmatlararo razvedka boshqarmasi (ISI) esa Tolibonning asosiy asoschisi sifatida tushuniladi. Pokistonning Afg'onistondagi va Tolibon orasidagi ta'siri asosan xavfsizlik va razvedka xizmatlarini qo'llab-quvvatlash masalasidir, Qatarning ta'siri esa bu aloqalar jahon kuchlari va xalqaro tashkilotlar oldida vositachilik va obro'-e'tiborga qaratilgan. Pokiston bilan Qatar o'rtasida vositachilik masalasida qanday farq bor degan savol tug'ilishi mumkin Pokiston masalasiga Rossiya biroz ishonmaydi. Buning sababi Qatarda Tolibonning "Mo'tadil" qismi joylashganligi Pokiston esa radikal qismi "Haqqoniy" qismini qo'llab quvvatlaydi. Shuning uchun ham Qatar tanlangan ammo barcha harakatlar Pokiston bilan hamkorlikda hal qilinadi. Yana Shunday ehtimollar ilgari suriladi-ki "Doha, ehtimol, Tolibonning ayrim davlatlar tomonidan tan olinishiga yordam beradi, deydi AQShning "Yangi Amerika" xalqaro xavfsizlik dasturining katta ilmiy xodimi Ioannis Koskinas."²¹ "Biz bu erdag'i diplomatiyamizni davom ettirar ekanmiz, Qatar bizning hamkorimiz bo'lishini bilamiz, chunki Qatar Afg'onistonda birinchi marta yordam ko'rsatayotgani yo'q", dedi AQSh Davlat kotibi Entoni Blinken va Mudofaa vaziri Lloyd Ostin. "Qatar rasmiysining aytishicha, Qatar xolis vositachi sifatida Afg'onistondagilarning harakat erkinligini ta'minlash va "mintaqadagi kelajakdagi har qanday beqarorlikning oldini olish uchun terrorizmga qarshi kurash" uchun barcha tomonlar bilan hamkorlik qilgan."²²

²⁰ Josh Lederman and Raf Sanchez (September 13, 2021) From pariah to partner: How Qatar's role in Afghanistan helped to restore U.S. relations Retrieved from: <https://www.nbcnews.com/news/world/pariah-partner-how-qatar-s-role-afghanistan-helped-restore-u-n1278999>

²¹ Josh Lederman and Raf Sanchez (September 13, 2021) From pariah to partner: How Qatar's role in Afghanistan helped to restore U.S. relations Retrieved from: <https://www.nbcnews.com/news/world/pariah-partner-how-qatar-s-role-afghanistan-helped-restore-u-n1278999>

²² <https://www.reuters.com/world/west-owes-qatar-favour-over-afghanistan-that-was-point-2021-09-08/w.reuters.com>



Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Qatar Tolibon bilan uzoq yillik aloqalarga ega. Bu yondashuv ba'zilar tomonidan tanqid qilinsa, boshqalari mamlakat aloqalaridan foyda ko'radi. Qatarning asosiy manfaatlari mintaqaviy vositachi sifatidagi mavqeini mustahkamlashdir. Qatar o'zining xalqaro miqiyosdagi obro'sini oshirdi shuningdek hozirgi davrda Ko'rfaz hamkorlik kengashi doirasida ham o'z o'rnini mustahkamladi. Shu bilan birga xalqaro tashkilotlarda ham va ikki tamonlama munosabatlarda ham vositachilik o'rni mustahkamlab oldi. Doha Afg'on masalasida yangi o'yinchi sifatida qo'shildi. Endi biz shuni tahmin qilishimiz mumkinki Doha markaziy Osiyo davlatlari bilan ham aloqalarni mustahkamlashga harakat qiladi. Buning sabablari Markaziy Osiyo davlatlari ham Afg'on masalasida o'z pozitsiyalarini kuchli himoya qilmoqdalar. Afg'on muammosini bu davlatda ta'sirga ega barcha kuchlar bilan hamkorlikda hal qilmasa hal qilish hal qilishi mushkul masala hisoblanadi. Bu masalada ham Qatarni vositachi davlat sifatida ko'rish ehtimolimiz yuqori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dr. Ali Abo Rezeg (August 24, 2021) ANALYSIS - Qatar emerges as biggest regional winner in Afghan endgame <https://www.aa.com.tr/en/analysis/analysis-qatar-emerges-as-biggest-regional-winner-in-afghan-endgame/2344157>
2. Josh Lederman and Raf Sanchez (September 13, 2021) From pariah to partner: How Qatar's role in Afghanistan helped to restore U.S. relations Retrieved from: <https://www.nbcnews.com/news/world/pariah-partner-how-qatar-s-role-afghanistan-helped-restore-u-n1278999>
3. Murat,S. (September 16, 2021) What role will Qatar play in Taliban ruled Afghanistan Retrieved from: <https://www.trtworld.com/magazine/what-role-will-qatar-play-in-taliban-ruled-afghanistan-50002>
4. Projected GDP per capita Ranking Retrieved from: <https://statisticstimes.com/economy/projected-world-gdp-capita-ranking.php>
5. Qatar's Taliban efforts position Doha as a key mediator: Analysts Retrieved from: <https://www.aljazeera.com/news/2021/8/20/qatars-taliban-efforts-position-doha-as-a-key-mediator-analysts>
6. SETH J. FRANTS MAN (August 25, 2021) How Qatar became the power broker of Afghanistan – analysis Retrieved from: <https://www.jpost.com/middle-east/how-qatar-became-the-power-broker-of-afghanistan-analysis-677606>
7. Strategies Retrieved from: <https://mofa.gov.qa/en/the-ministry/ministry-strategies>